

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM – TARBIYASINI
TASHKIL ETISHDA XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANISH

Nishanova Aziza Mirzaxmadova

TURAN INTERNATIONAL UNIVERSIT

G'iyasova Sarvinoz

TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda, ularni kelajakda yetuk shaxs sifatida kamol topishida albatta tarbiyachilarning o'rnini katta. Shunday ekan bolalarni o'qitishda yangi zamonaviy uslublardan foydalanish bolalarni yangi zamon ruhida tarbiyalanishida, ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishida asosiy omil bo'ladi, desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu maqolada shu fikrlarning asosini ko'rib chiqish mumkin.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, aqliy qobiliyat, imkoniyatlar, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация: Воспитателям принадлежит большая роль в воспитании детей дошкольного возраста и их развитии во взрослом возрасте в будущем. Поэтому правильно говорить о том, что использование новых современных методов в обучении детей является главным фактором воспитания детей в духе нового времени и формирования из них зрелых профессионалов. В этой статье можно рассмотреть основу этих идей.

Ключевые слова: дидактические игры, умственные способности, возможности, условия, устное народное творчество.

Abstract: Educators have a great role in educating preschool children and in their development as adults in the future. Therefore, it is correct to say that the use of new modern methods in teaching children is the main factor in bringing up children in the spirit of the new age and making them mature professionals. In this article, you can consider the basis of these ideas.

Key words: didactic games, mental ability, opportunities, conditions, folk oral creativity.

KIRISH

Professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. SH.M.Mirziyoyev

Jahon maktabgacha ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashga doir samarali ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim dasturlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda maktabgacha ta'lim bo'yicha samarali o'quv rejasi va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish, aqliy, ma'naviy-axloqiy tarbiyani folklor namunalari orqali singdirish, koreys, yapon

folkloridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga shifokorlar ajratish, tibbiyot hamshiralarning malakasini oshirish, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun doridarmon, sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq ta'minlash, bolalarning ovqatlanishini belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mo'ljallangan o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni nashr etishga doir standartlarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash masalasiga ham e'tibor qaratildi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2020 yil 07/20/4581/0098-sonli "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash orqali “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta'limi bilan kengroq qamrab olinishini ta'minlash” ustuvor vazifalar etib belgilandi. 1 Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarmog'ini kengaytirish va bu tashkilotlarda bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2016- yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312- son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 13-maydagi 391-son “Pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrda —Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MX sonli — “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Respublikamizda maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarini hal etish nazarda tutilgan. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va har tomonlama yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr 637-son qarorida qabul qilingan “Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 8-moddasida: “Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart-sharoitlari keltirib o'tilgan. Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg'or, ilmiyuslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsadi, vazifalari, hozirgi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri

hisoblanadi. Barchamiz shuni chuqur anglab oldikki, faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko’tarishga qodir bo’ladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES):

1. Ravshanova N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uzviylik asosida ekologik tarbiya tushunchalarini shakllantirish.//monografiya/ T. : Nizomiy nomidagi TDPU, 2022 y
2. Tolipova J.O., Fofurov A. Biologiya o’qitish metodikasi. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o’qitishda innovasion texnologiyalar. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
4. Xolto’rayeva, S. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 579-581.
5. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).
6. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 23-31.
7. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O ‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).
8. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 12-15).
9. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 12-15.
10. Xolto’rayeva, S. X. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 871-872